

DINIY VAZIYATNI O'RGANISH, TAHLIL ETISH VA BAHOLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

ОСОБЕННОСТИ ИЗУЧЕНИЯ, АНАЛИЗА И ОЦЕНКИ РЕЛИГИОЗНОЙ СИТУАЦИИ

SPECIFIC FEATURES OF STUDYING, ANALYZING AND EVALUATING THE RELIGIOUS SITUATION

HASANBOYEV Utkirbek,
INTERNATIONAL ISLAMIC ACADEMY OF UZBEKISTAN
PhD in history, Associate Professor of the UNESCO
Chair on religious studies and the comparative
study of world religions
11 A.Kadiri, Tashkent 100011, Uzbekistan

DOI: 10.47980/IIAU/2026/2/3

Annotatsiya: Mazkur maqolada “diniy vaziyat” tushunchasining ilmiy-nazariy asoslari, uning jamiyat hayotidagi o‘rni hamda ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga ta’siri kompleks tarzda tahlil qilingan. Tadqiqotda diniy vaziyat tushunchasining zamonaviy dinshunoslik, sotsiologiya va siyosatshunoslikdagi talqinlari o‘rganilib, Pol Tilik, A.N. Leshinskiy, R.A. Lopatkin kabi olimlarning nazariy qarashlari asosida ushbu tushunchaning mohiyati yoritilgan. Muallif diniy vaziyatni muayyan hudud va davrda din bilan bog‘liq jarayonlarning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy va madaniy munosabatlar barqarorligiga ta’siri bilan bog‘liq murakkab ijtimoiy hodisa sifatida tavsiflaydi.

Maqolada diniy vaziyatning obyekti, predmeti, subyektlari, ichki va tashqi omillari tizimli ravishda tahlil qilinib, davlat va din munosabatlari, konfessiyalararo aloqalar, diniy tashkilotlar faoliyati, ommaviy axborot vositalari va internet makonidagi diniy kontentlarning ta’siri yoritilgan.

Tadqiqot davomida diniy vaziyatni monitoring qilish, baholash va tahlil etishning milliy xavfsizlik hamda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashdagi ahamiyati asoslab berilgan. AQSH, Germaniya, Buyuk Britaniya, Niderlandiya, Misr, Saudiya Arabistoni va Singapurdagi diniy-siyosiy jarayonlarni tadqiq etuvchi ilmiy markazlar faoliyati misol tariqasida keltirilgan. Shuningdek, diniy vaziyat barqarorligini ta’minlashning asosiy omillari sifatida dunyoviylik tamoyilini mustahkamlash, vijdon erkinligini kafolatlash, diniy sohadagi qonunchilikni takomillashtirish, konfessiyalararo muloqotni rivojlantirish, ma’rifiy islom g‘oyalarini targ‘ib qilish hamda radikallashuv va ekstremizmning oldini olish masalalari tahlil etilgan. Tadqiqot natijalari diniy vaziyatni ilmiy asosda boshqarish jamiyatdagi bag‘rikenglik, fuqarolik birdamligi va ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni mustahkamlashning muhim omillaridan biri ekanini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Diniy vaziyat, diniy omil, din va davlat munosabatlari, sekulyarizm, vijdon erkinligi, konfessiyalararo

muloqot, diniy barqarorlik, radikallashuv, deradikalizatsiya, milliy xavfsizlik.

Аннотация. В статье комплексно рассматриваются научно-теоретические основы понятия «религиозная ситуация», его роль в жизни общества и влияние на социально-политические процессы. Автор обращается к трактовкам этого понятия в современном религиоведении, социологии и политологии и раскрывает его содержание, опираясь на теоретические взгляды Пауля Тиллиха, А. Н. Лешинского и Р. А. Лопаткина. Религиозная ситуация определяется как сложное социальное явление, отражающее то, как связанные с религией процессы в конкретном регионе и в конкретный период воздействуют на устойчивость социальных, политических, экономических, правовых и культурных отношений.

В работе последовательно анализируются объект, предмет и субъекты религиозной ситуации, а также её внутренние и внешние факторы. Особое внимание уделяется отношениям государства и религии, межконфессиональным связям, деятельности религиозных организаций и влиянию религиозного контента в средствах массовой информации и интернете.

Обосновывается значение мониторинга, оценки и анализа религиозной ситуации для обеспечения национальной безопасности и социальной стабильности. В качестве примеров приводится работа научных центров, изучающих религиозно-политические процессы, в США, Германии, Великобритании, Нидерландах, Египте, Саудовской Аравии и Сингапуре. Среди ключевых условий устойчивости религиозной ситуации автор выделяет укрепление принципа светскости, гарантии свободы совести, совершенствование законодательства в религиозной сфере, развитие межконфессионального диалога, распространение идей просвещённого ислама, а также профилактику радикализации и экстремизма. Проведённый анализ показывает, что научно обоснованное регулирование религиозной ситуации служит одним из важных условий укрепления толерантности, гражданского согласия и социально-политической стабильности.

Ключевые слова: Религиозная ситуация, религиозный фактор, отношения государства и религии, секуляризм, свобода совести, межконфессиональный диалог, религиозная стабильность, радикализация, дерадикализация, национальная безопасность.

Annotation: This article provides a comprehensive analysis of the theoretical foundations of the concept of “religious situation,” its structural elements, and its influence on socio-political processes in contemporary society. The study examines the interpretations of the concept of the religious situation in contemporary religious studies, sociology, and political science, and elucidates its essence on the basis of the theoretical perspectives of scholars such as Paul Tillich, A. N. Leshinsky, and R. A. Lopatkin. The author characterizes the religious situation as a complex

social phenomenon associated with the influence of religion-related processes, within a specific territory and historical period, on the stability of social, political, economic, legal, and cultural relations.

Particular attention is paid to the analysis of the object, subject, actors, and internal and external factors shaping the religious situation. The article also explores the influence of state–religion relations, interfaith interaction, religious organizations, mass media, and online religious content on public life.

The study substantiates the significance of monitoring, assessing, and analyzing the religious situation for ensuring national security and maintaining social stability. Examples are provided from specialized research centers in the United States, Germany, the United Kingdom, the Netherlands, Egypt, Saudi Arabia, and Singapore that focus on religious-political processes, counter-radicalization, and deradicalization strategies. The article further analyzes the main factors contributing to the stability of the religious situation, including strengthening secular principles, guaranteeing freedom of conscience and religion, improving legislation in the religious sphere, promoting interfaith dialogue, disseminating the ideas of enlightened Islam, and preventing radicalization and extremism. The findings of the study demonstrate that the scientifically grounded management of the religious situation constitutes one of the key factors in strengthening social tolerance, civic cohesion, and socio-political stability within society.

Keywords: Religious situation, religious factor, state–religion relations, secularism, freedom of conscience, interfaith dialogue, religious stability, radicalization, deradicalization, national security.

KIRISH

XX asr so‘ngiga kelib siyosatshunoslar, olimlar va jurnalistlar ijtimoiy-diniy jarayonlar hamda dinlarning ijtimoiy-siyosiy vaziyatga ta‘siri bilan bog‘liq holatlarni izohlashda “diniy vaziyat” tushunchasini keng qo‘llay boshlagan bo‘lsalarda, ammo hozirga qadar mazkur tushunchani ilmiy jihatdan to‘laqonli ifodalovchi yagona termin mavjud emas. Ilmiy doiralar va ommaviy axborot vositalarida ushbu tushuncha turlicha talqin etib kelinmoqda.

Xususan, amerikalik faylasuf Pol Tilik “diniy vaziyat” (*religious situation*) tushunchasini vaqtinchalik va doimiylik e‘tiboridan ikki jihatiga ko‘ra ta‘riflagan. Birinchisiga ko‘ra, *diniy vaziyat – bu diniy sohaga doir tendensiyalar, ibodatxonalar, sektalar, ilohiyotga doir tushunchalar va ularga hamrohlik qiluvchi barcha turdagi diniy harakatlar* demakdir. Ikkinchi jihatdan esa, diniy vaziyat barcha ko‘zga ko‘rinadigan tendensiyalardan chuqurroqda yotgan asosiy faktga, ya‘ni o‘z-o‘zidan ayon bo‘lgan e‘tiqodga ishora qiladi. Barcha narsani belgilovchi, yakuniy ma‘no manbai

bo‘lgan bu e‘tiqod muayyan davrning haqiqiy diniy vaziyatini tashkil etadi (Paul Tillich, 2014:13-15).

MAQSAD VA VAZIFA

Aksar nemis dinshunoslari va sosiologlari “diniy vaziyat” tushunchasiga ma‘no jihatidan to‘g‘ri keladigan atama sifatida “*religiose Gedenstande*” so‘zini qo‘llashadi. Ushbu so‘zga *dinning jamiyatdagi sekulyarizatsiya jarayonlarining hajmi va darajasi kontekstidagi zamonaviy holati* sifatida ta‘rif beriladi (M.Ebertz, 2022).

Rossiyalik olim A.N.Leshinskiyning ta‘rifiga muvofiq, *diniy vaziyat – dinning o‘zgaruvchan tarkibiy unsurlari majmuasidan iborat. Diniy vaziyat dinga jamiyat, guruh va individuumlarning munosabatlari va diniy tasavvurlar darajasi, dinning jamiyatga ta‘sirining kuchli yoki zaif ekani, dinlararo muloqotning mazmuni hamda va diniy tashkilotlari o‘rtasidagi aloqalarning o‘ziga xos jihatlari (modellari) bilan belgilanadi* (Лещинский А. Н., 2004:90).

Rossiyalik boshqa dinshunos olim R.A.Lopatkinning “diniy vaziyat”ga bergan ta‘rifi amaliy tadqiqotlar uchun aniqroq ifodalangan. Unga ko‘ra, *diniy vaziyat – jamiyat, mintaq, o‘rganilayotgan obyektidagi diniy jarayon va hodisalarning mavjudligi, ularning mazmuni, namoyon bo‘lish, dinamika va yo‘nalishlarining o‘zgarishi hamda jamiyat va o‘rganilayotgan obyektga ta‘siri darajasi bilan bog‘liq holat* hisoblanadi (Лопаткин Р. А., 2004).

USLUBLAR

Qayd etilganlar asosida diniy vaziyatni (*diniy fon*) umumiy tarzda, muayyan hudud va ma‘lum bir davrda kechayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga diniy omilning ta‘siri bilan bog‘liq holat sifatida ifodalash mumkin. Shundan kelib chiqqan holda, *diniy vaziyatga quyidagicha ta‘rif berish taklif etiladi: muayyan obyektga ma‘lum bir davrda kechayotgan din bilan bog‘liq jarayonlar rivojida o‘zgarishlarning ijtimoiy, huquqiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy munosabatlarning barqarorligiga ta‘siri bilan tushuniladigan holat.*

Ushbu ta‘rifga asoslangan holda diniy vaziyatni tashkil etuvchi unsurlar (elementlar) haqida quyidagilarni qayd etish lozim:

1. Diniy vaziyat o‘rganilayotgan muayyan obyekt tushunchasi ostida alohida tashkilot, ijtimoiy soha (*davlat idoralari, jamiyat tashkilotlari, ta‘lim, tibbiyot muassasalari, ishlab chiqarish va tadbirkorlik subyektlari va h.k.*), yoki ma‘muriy-geografik birlik (*mahalla, aholi yashash manzili, tuman, shahar, viloyat, davlat, dunyo*) nazarda tutilishi mumkin.

2. *Muayyan davr* tushunchasi esa tadqiq qilinishi rejalashtirilayotgan vaqtni (*o'tgan tarixiy asr va yillar, yoki bugungi kundagi oylar, hozirgi konkret vaqt va h.k.*) o'z ichiga oladi.

3. *Din bilan bog'liq jarayonlar* deganda davlat va din, konfessiyalararo yoki muayyan bir doirasida, dindor va dindor bo'lmagan ijtimoiy qatlamlar o'rtasidagi munosabatlar, diniy sohadagi qonunchilik ijrosi jarayonida kuzatilayotgan holatlar, rasmiy diniy tashkilotlar, norasmiy diniy jamoalar, diniy jamoa niqobidagi ekstremistik va terrorchi tashkilotlar faoliyati, diniy mavzuda OAVda tarqatilayotgan materiallar hamda shu yo'nalishda jahonda va mamlakat ichida ro'y berayotgan voqea-hodisalar tushunilishi mumkin.

4. *Ijtimoiy, huquqiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy munosabatlar* tushunchasi odamlarning ijtimoiy maqomi va funksiyalaridan kelib chiqqan holda ijtimoiy hayotning huquq, siyosat, iqtisodiyot, madaniyat, ta'lim va boshqa sohalaridagi shu jumladan oila va qarindoshlik borasidagi o'zaro aloqalari tizimi sifatida ta'riflanadi. Mazkur munosabatlar alohida individlar, ijtimoiy guruhlar va institutlar darajasida bo'ladi.

NATIJA

Bugun ilmiy va siyosiy doiralarda “diniy vaziyat” tushunchasiga sinonim sifatida “davlat va din munosabatlari holati”, “diniy fon”, “diniy muhit”, “diniylik darajasi”, “diniy omil” kabi tushunchalar ham qo'llanilmoqda. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, mazkur tushunchalarning aksari “diniy vaziyat” tushunchasiga to'laonli ekvivaliyent bo'la olmaydi. Masalan, davlat va din munosabatlari holati diniy vaziyatning bir qismi hisoblanadi, chunki diniy vaziyatning subyektlari faqat davlat bilan bog'liq emas.

Diniy vaziyat jamiyatda kechayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning bir qismi hisoblanadi. Uning barqaror rivojlanishi milliy xavfsizlikni ta'minlashda o'ta muhim. Mazkur holat diniy vaziyatni obyektiv baholash bo'yicha yaxlit axborot maydoni va ma'lumotlar bazasini shakllantirishni taqozo etadi. Shu sababli muayyan hududda vaziyatni baholash uchun davriy ravishda diniy vaziyat dinamikasi ko'rsatkichlarining monitoringi va tahlilini olib borish davlat uchun muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Jamiyatdagi turli ijtimoiy guruhlar va alohida fuqarolarning diniy sohadagi manfaatlarini uyg'unlashtirish, vijdon va e'tiqod erkinligi huquqi ta'minlashda diniy vaziyatga haqqoniy baho berish muhim ahamiyatga ega. Mavjud holatni yanada sog'lomlashtirish uchun ko'riladigan chora-tadbirlarning mazmun-mohiyati diniy vaziyatning har tomonlama

tahliliga asoslanishi shart. Aks holda davlat tomonidan diniy sohaga tegishli qonunchilik, axborot-targ'ibot va boshqa yo'nalishlarida amalga oshirilayotgan islohotlar aholida norozilik keltirib chiqarib, ijtimoiy-siyosiy vaziyatga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Shu nuqtai-nazardan diniy vaziyatning tahlili dinshunoslik, siyosatshunoslik, sosiologiya fanlari va fanlararo ilmiy tadqiqotlarning mavzusi bo'lishi bilan bir qatorda diniy sohaga mas'ul bo'lgan davlat tashkilotlarining axborot-tahlil faoliyatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bugun dunyoning aksar mamlakatlarida ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda din omilining o'rni, diniy vaziyat tahlili, mavjud tahdidlarni aniqlash va bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish, aksiltarg'ibot va deradikalizatsiya faoliyati bilan shug'ullanishga ixtisoslashgan markazlar mavjud.

Jumladan, bu kabi markazlar qatorida AQSHdagi Raqamli ekstremizmga qarshi kurashish instituti (ICDE), Germaniyadagi Gessen maslahat markazi (*Advice Centre Hesse*), Radikallashuv va deradikalizatsiya jarayonlarini tadqiq qilish instituti (*German Institute on Radicalisation and Deradicalisation Studies*), Buyuk Britaniyadagi Strategik muloqot instituti (*Institute for Strategic Dialogue, ISD*), Radikallashuv va siyosiy zo'ravonlikni o'rganish bo'yicha xalqaro markaz (*International Centre for the Study of Radicalisation and Political Violence*), Niderlandiyadagi Xalqaro terrorizmga qarshi kurash markazini (*International Centre for Counter Terrorism*) qayd etish mumkin (www.beratungsstelle-hessen.de).

Islom olamiga mansub davlatlarda diniy-siyosiy yo'nalishlarda tadqiqotlar olib boruvchi “aql markazlari” qatorida Misrdagi Ekstremizmga qarshi kurash “Al-Azhar” observatoriyasi (*Al-Azhar Observatory for Combating Extremism*), Ekstremizmni o'rganish va islomofobiya qarshi kurashish Salam markazi (*Salam Center for Extremism Studies and Combating Islamophobia*), Saudiya Arabistonidagi Muhammad ibn Nayf as-Saud nomidagi Maslahat va g'amxo'rlik markazi (*Muhammad bin Naif Counselling and Care Center*), “Etidal” – Ekstremistik g'oyalarga qarshi kurashish bo'yicha Global markaz (*Etidal (Global Center for Combating Extremist Ideology)*), Birlashgan Arab Amirliklaridagi “Hidoya” markazi (*Hedayah (International Center of Excellence for Countering Violent Extremism)*), SAVAB markazi (*Sawab Center*) kabi tashkilotlarni ko'rsatish mumkin (www.azhar.eg/observer-en/).

Osiyoda bu kabi muammolar bilan shug'ullanuvchi markazlar misolida Singapurdagi S.Radjaratnam nomidagi Xalqaro tadqiqotlar maktabini (*S.Rajaratnam School of International Studies, RSIS*), Markaziy Osiyo mintaqasida Qozog'istonning “Nur-Muborak”

universiteti qoshidagi Diniy ekstremizmga qarshi kurashish akademiyasini, "Ansor" Maslahat-reabilitatsiya markazini e'tirof etish mumkin (www.rsis.edu.sg).

Diniy vaziyat o'zgaruvchan jarayon bo'lib, unda son va sifat o'zgarishlarining kuzatilishi, ma'lum bir davrda tarkibiy unsurlarining ba'zi qismining ahamiyati ortishi yoki yo'qolishi, tashqi omillar ta'sirining kuchayishi yoki zaiflashuvi sodir bo'lishi mumkin.

Diniy vaziyatni o'rganishning obyektlari jamiyatdagi diniy soha bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy-diniy jarayonlarda ishtirok etayotgan keng spektrdagi ijtimoiy institutlar va ular orasidagi munosabatlar hisoblanadi. Ushbu obyektlarga diniy qarashlar va muqaddas matnlar, diniy institutlar, diniy marosim va urf-odatlar, jamiyat va dinning, turli konfessiyalarning o'zaro munosabatlari kabilarni kiritish mumkin.

Diniy vaziyatni o'rganishning predmeti muayyan joy va vaqtdagi ijtimoiy-diniy jarayonlar yoki diniy voqea-hodisalar hisoblanadi hamda diniy e'tiqod, amaliyotlar, institutlar, ularning ijtimoiy hayotning boshqa sohalari bilan o'zaro aloqalarini tahlil qilishni maqsad qiladi. Mazkur predmet ijtimoiy-diniy jarayonlarning boshqa sohalarga, xususan, iqtisodiyot, siyosat, madaniyat, ta'lim, sog'liqni saqlash kabi yo'nalishlariga, jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatga, ijtimoiy guruh va individlarga ta'sirini ham o'rganib boradi.

Diniy vaziyatning subyektlariga ijtimoiy-diniy jarayonlarga ta'sir ko'rsatadigan aktorlar, jumladan, davlat, mamlakat ichidagi diniy tashkilotlar, xalqaro diniy tashkilotlar, diniy yetakchilar va boshqalar kiradi. Diniy vaziyat o'zida nafaqat diniy, balki din bilan bog'liq boshqa ijtimoiy hodisalarni ham qamrab, subyektlar orasidagi ijtimoiy munosabatlar asosida shakllanadi. Shu ma'noda diniy vaziyatga daxldor subyektlarni shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin. Ular quyidagilar: munosabat, vaziyatga ta'sir qiluvchi omil – determinant mazmuniga ega subyektlar hamda diniy omillar ta'sir ko'rsatadigan subyektlar (*Выдрина Г.А., 2004:15*).

Masalan, O'zbekistonda diniy vaziyatga ta'sir o'tkazuvchi subyektlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- diniy sohani muvofiqlashtiruvchi davlatning vakolatli organlari (*O'zbekistonda – Din ishlari bo'yicha qo'mita, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimining jamoat va diniy tashkilotlar bilan aloqalar bo'yicha o'rinbosari kotibiyati*), ushbu sohada ta'lim, ilmiy-tadqiqot va boshqa faoliyat olib boruvchi tashkilotlar (*O'zbekistonda – O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi, O'zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi*

va h.k.), huquqni muhofaza qiluvchi organlarning tegishli tizimlari;

- diniy tashkilotlar;
- faoliyati muayyan darajada diniy soha bilan aloqador bo'lgan madaniyat, ta'lim muassasalari kabi ijtimoiy institutlar;
- diniy yo'nalishdagi OAV, Internet, ijtimoiy tarmoqlar;
- xalq ichida obro'-e'tiborga ega ulamolar, diniy sohada faoliyat yurituvchi OAV va alohida blogerlar;
- norasmiy diniy va diniy-siyosiy jamoalar, guruhlar, tashkilotlar va h.k.

O'z navbatida, diniy omillar ta'sir ko'rsatadigan subyektlar qatoriga davlat va jamoat tashkilotlari, nodavlat notijorat tashkilotlar, ta'lim muassasalari, ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish obyektlari, aholining dindor bo'lmagan qatlamlari va h.k.lar kiritish mumkin.

Diniy vaziyatning ma'lum bir tarixiy davrdagi rivojlanish tendensiyalarini to'g'ri tushunish uchun uning aynan shu shaklda kechishiga sabab bo'layotgan omillar, harakatlantiruvchi kuchlarni aniq ajrata bilish lozim. Mazkur omillar ichki (*bevosita din va diniy institutlar bilan bog'liq*) va tashqi (*ijtimoiy hayotning dindan tashqaridagi sohalari*) tabiatga ega bo'lishi mumkin (*Е.Элбакаян, В.Сторчак, 2004*).

Umumiy jihatdan diniy vaziyat omillarini *din va diniy institutlarning jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy sohalari bilan o'zaro ta'sirini belgilab beruvchi shart-sharoitlar majmui* sifatida ko'rish mumkin. Diniy vaziyat omillari aholining diniylik darajasiga, dinning ijtimoiy hayotdagi ko'rinishlariga, davlat va din munosabatlariga, bundan tashqari, konfessiyalararo munosabatlariga ham ta'sir o'tkazadi.

Diniy vaziyatning ijtimoiy omillari sifatida sekulyarizatsiya jarayonlarining darajasini, dunyoviylikning diniy qarashlarga, o'z navbatida dinning jamiyat axloqiga ta'sirini, aholining turmush darajasi, bandlik, ta'lim sifati, migratsiya jarayonlari, etnokonfessional manzaralar va munosabatlarni hamda boshqa omillarni aytib o'tish mumkin.

Siyosiy sohada diniy huquqiy-me'yoriy hujjatlar orqali diniy sohani tartibga solinishi, diniy tashkilotlarning davlat va jamiyat bilan o'zaro munosabatlari, siyosiy partiyalarning dinga munosabati, diniy g'oyalarning jamoatchilik fikrini shakllantirishdagi ta'siri, diniy ritorika va fuqarolarning diniy his-tuyg'ularidan siyosiy maqsadlarda foydalanish qaratilgan harakatlar kabi holatlar bilan bog'liq.

Iqtisodiy omillar diniy tashkilotlar, dindor qatlamga mansub tadbirkorlarning iqtisodiy salohiyati va iqtisodiyotga ta'siri, diniy tashkilotlarning xayriya ishlarida ishtiroki kabilarda aks etadi.

Madaniy-tarixiy soha bilan bog'liq omillar qatorida dinning xalqona an'ana va urf-odatlar bilan aloqasi, diniy bayram va marosimlarining kundalik hayotga ta'siri, diniy san'at va adabiyotlar, globalashuv va madaniyatlararo hamkorlikning diniy qarashlarga va aksincha, diniy obraz, simvol va matnlarning madaniyatga ta'siri kabilarni qayd etish mumkin.

Diniy vaziyatning barqarorligini ta'minlash konfessiyalararo va ijtimoiy-diniy munosabatlarda tinchlik va hamkorlikni, bag'rikenglik va vijdon erkinligini ta'minlash, jamiyatning din davlatdan ajratilganligi tamoyili va dunyoviylik asosini mustahkamlash, diniy sohada mojaroli holatlarga, diniy omil asosida radikallashuv va ekstremizm g'oyalari tarqalishiga yo'l qo'ymaslikni nazarda tutadi.

Diniy vaziyat barqarorligi umumiy ma'noda shaxs, jamiyat va davlatning diniy sohadagi hayotiy muhim manfaatlarining kafolatli himoyalanganlik va izchil rivojlanish holati hisoblanadi. Dunyoviy davlat va mafkuraviy hurfiylik sharoitida diniy vaziyat barqarorligini ta'minlash davlatning strategik vazifalaridan biri sanalib, uni hal etishda fuqarolik jamiyatida mavjud bo'lgan barcha vositalaridan foydalanishni talab etadi hamda ushbu yo'nalishda mustahkam huquqiy asos yaratishni taqozo qiladi (Meцepяkova A. Ф., 2024:53–62).

Shu nuqtai-nazardan diniy vaziyat barqarorligini ta'minlovchi muhim omillar qatorida quyidagilarni qayd etish mumkin:

1. Davlatning dunyoviy asosini mustahkamlash.

- *dunyoviylik tamoyilini himoya qilish*: davlat va diniy ishlar chegarasini aniq belgilash, diniy institutlarni siyosatga, davlat organlarining qaror qabul qilish jarayoniga aralashtirmaslik;

- *vijdon erkinligini ta'minlash*: vijdon va e'tiqod erkinligini kafolatlash, diniy alomatlariga ko'ra diskriminatsiyaga yo'l qo'ymaslik, fuqarolarning diniy mansubligidan qat'iy nazar qonun oldidagi tengligini ta'minlash, diniy konfessiyalar bilan ijtimoiy muammolarni hal etishda, yoshlarni bag'rikenglik ruhida tarbiyalashda hamkorlik qilish;

- *ta'lim tizimiga ma'naviyat va hurfiylikni yuksaltirishga xizmat qiluvchi o'quv dasturlarini kiritish*: o'quv dasturlariga dinshunoslik, dunyo dinlari tarixi, madaniyatshunoslik, jamiyatshunoslikka oid fanlarni kiritish, yoshlarda fuqaroviy faollik, hurfiylik, bag'rikenglik xislatlarni shakllantirish;

2. Diniy sohadagi qonunchilikni takomillashtirib borish va qonun ustuvorligini ta'minlash.

- *diniy sohadagi qonunlar ijrosini monitoring va tahlil qilish*: mamlakatda qonuniy kuchga kiritilgan huquqiy-me'yoriy hujjatlarni bugungi kun voqeligidan kelib chiqqan holda takomillashtirish, diniy sohada

ehtimoldagi yoki mavjud xatar va tahdidlarni bartaraf etishning huquqiy asosini mustahkamlab borish;

- *diniy sohadagi davlat siyosati to'laqlonli amalga oshirishini ta'minlash*: barcha darajadagi davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan diniy sohadagi davlat siyosatini amalga oshirishdagi integratsiyasini ta'minlash;

- *diniy tashkilotlar faoliyatiga taalluqli qonun ijrosini ta'minlash*: rasmiy ro'yxatdan o'tgan diniy tashkilotlarning emin-erkin va to'laqlonli faoliyat yuritishini ta'minlash, milliy xavfsizlik va davlatning konstitutsiyaviy asosiga tahdid tug'diruvchi, aholi o'rtasida diniy omil asosida radikallashuvga olib keladigan destruktiv diniy guruhlarining faoliyatiga qonun bilan chek qo'yish.

3. Diniy sohadagi huquqiy savodxonlikni, ma'rifiy islom haqidagi sog'lom tushunchalarni shakllantirish va "jaholatga qarshi – ma'rifat" g'oyasi asosida radikallashuvning oldini olish.

- *axborot-targ'ibot va ma'naviyat-ma'rifat ishlari*: aholining diniy sohadagi qonunchilik bo'yicha xabardorligini oshirish, ma'rifiy islom tushunchalarining mazmun-mohiyatini tushuntirish, din niqobidagi radikalizm va ekstremizm g'oyalarining destruktiv jihatlarini keng jamoatchilikka yetkazishga qaratilgan axborot-targ'ibot va ma'naviyat-ma'rifat ishlarini amalga oshirish, media kontentlar va matnli ma'lumotlar ishlab chiqarishni tizimli yo'lga qo'yish, diniy-ma'rifiy mavzularda va deradikalizatsiya yo'nalishida faoliyat olib boruvchi OAVni qo'llab-quvvatlash;

- *rasmiy diniy tashkilotlarni qo'llab-quvvatlash*: aholi uchun an'anaviy bo'lgan diniy qadriyatlar tizimini, qo'llab-quvvatlash, rasmiy diniy tashkilot rahbarlari va yetuk ulamolarning ommaviy axborot vositalaridagi ma'rifiy mavzulardagi chiqishlarini tashkil etish;

- *din niqobidagi ekstremizm profilaktikasi*: diniy mazmundagi mahsulotlarini amaldagi tartiblarga zid ravishda tayyorlash, saqlash, mamlakat hududiga olib kirish holatlarini doimiy nazorat qilish, ekstremistik g'oya targ'ibotiga yo'l qo'ymaslik, OAV va Internetda keng tushuntirish ishlari olib borish, radikal diniy tashkilotlarni barvaqt aniqlash va faoliyatiga barham berish.

4. Barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash.

- *iqtisodiy rivojlanish*: barqaror va inklyuziv iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish, ishlab chiqarish samaradorligi va raqobatbardoshlikni oshirish;

- *ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish*: moddiy qiyinchiliklar sababli ijtimoiy keskinliklar kelib chiqishiga, aholining turmush darajasini tushib ketishiga yo'l qo'ymaslik;

– *aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash*: ijtimoiy adolatni ta'minlash, fuqarolar, ayniqsa yoshlarni ish bilan ta'minlash va iqtisodiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ijtimoiy loyihalarni tizimli amalga oshirish orqali ijtimoiy muammolarning kelib chiqishiga yo'l qo'yimaslik va shutufayli radikallashtirishning oldini olish.

5. Konfessiyalararo muloqot va hamkorlik.

– *uchrashuv va anjumanlar tashkil etish*: turli diniy konfessiyalar hamkorligida dolzarb muammolarni muhokama qilish, tajriba almashish, o'zaro ishonchni mustahkamlashga qaratilgan davra suhbatlari, konferensiya va boshqa formatdagi anjumanlar tashkil etish;

– *qo'shma loyihalar amalga oshirish*: turli diniy konfessiyalar tomonidan hamkorlikda jamiyatda birlik va birdamlikni mustahkamlashga qaratilgan ijtimoiy loyihalar, xayriya ishlari va madaniy tadbirlarni amalga oshirish;

– *o'zaro hurmat va bag'rikenglik*: aholi, ayniqsa yoshlar o'rtasida boshqa konfessiyalarning urf-odat va an'analariga hurmat bilan munosabatda bo'lishni shakllantirishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirish.

6. Diniy asosdagi mojarolarning barvaqt oldini olish.

– *monitoring va tahlil*: konfessiyalararo, aholining dindor va dindor bo'lmagan ijtimoiy qatlamlari o'rtasida mojaro keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan holatlarni barvaqt aniqlash va ko'rilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini baholashga qaratilgan monitoring va tahlil ishlarini tashkil etish;

– *din bilan bog'liq axborot iste'moli madaniyatini shakllantirish*: aholi, xususan yoshlarda din bilan bog'liq ma'lumotlarni tanqidiy-tahliliy tafakkur qilishni shakllantirish orqali ijtimoiy tarmoqlar va boshqa axborot kanallari orqali tarqatilayotgan uydirma va ekstremistik ma'lumotlar ta'siriga tushib qolishlarining oldini olish;

– *aholida diniy hurfiylikni shakllantirish*: ta'lim muassasalarida o'quv dasturlarida diniy hurfiylikni shakllantiruvchi kurslarni kiritish, diniy xilma-xillikka nisbatan ijobiy munosabat shakllantirishga qaratilgan axborot kompaniyalari va ijodiy loyihalarni amalga oshirish, diniy mutaassiblik, jaholat va xurofotlarga qarshi profilaktika va axborot-targ'ibot ishlarini amalga oshirish

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, "diniy vaziyat" tushunchasi jamiyatdagi diniy jarayonlarning holati, din va davlat munosabatlari, konfessiyalararo aloqalar hamda diniy omilning ijtimoiy-siyosiy hayotga ta'sirini ifodalovchi murakkab va ko'p qirrali

hodisa hisoblanadi. Diniy vaziyatning barqarorligi jamiyatdagi tinchlik, millatlararo va konfessiyalararo totuvlik, fuqarolik birdamligi hamda milliy xavfsizlikni ta'minlashning muhim shartlaridan biridir. Shu bois diniy vaziyatni ilmiy asosda monitoring qilish, uning ichki va tashqi omillarini tizimli tahlil etish davlat va jamiyat oldidagi dolzarb vazifalardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Tahlillar diniy vaziyatga sekulyarizatsiya jarayonlari, iqtisodiy rivojlanish, migratsiya, ta'lim sifati, ommaviy axborot vositalari va internet tarmoqlaridagi diniy kontent, shuningdek, siyosiy jarayonlar sezilarli ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi. Tadqiqot davomida diniy vaziyat barqarorligini ta'minlashning asosiy omillari sifatida dunyoviylik tamoyilini mustahkamlash, vijdon erkinligini kafolatlash, diniy sohadagi qonunchilikni takomillashtirish, konfessiyalararo muloqotni rivojlantirish hamda radikallashtirish va ekstremizmning oldini olish zarurligi asoslab berildi. Shuningdek, "jaholatga qarshi – ma'rifat" tamoyili asosida olib boriladigan ma'naviy-ma'rifiy ishlar jamiyatda diniy bag'rikenglik va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashning muhim vositalaridan biri ekani aniqlandi.

ADABIYOTLAR:

1. Paul Tillich. The Religious Situation. P. 13-15. [https://media.sabda.org/alkitab-2/Religion Online.org%20Books/Tillich%20C%20Paul%20The%20Religious%20Situation.pdf](https://media.sabda.org/alkitab-2/Religion%20Online.org%20Books/Tillich%20C%20Paul%20The%20Religious%20Situation.pdf). Мурожаат санаси: 27.07.2025 й.
2. M.Ebertz. Religionssozologie, Uhr, in: Staatslexikon8 online, Version 08.06.2022, <https://www.staatslexikon-online.de/Lexikon/Religionssozologie>. Мурожаат санаси: 25.07.2025 й.
3. Лещинский А. Н. (2004) Вероисповедная политика и религиозная ситуация в современной России // Социальная политика и социология. №2. – С.90/
4. Лопаткин Р. А. Социологическая интерпретация понятия «Религиозная ситуация». https://studme.org/151963/sotsiologiya/metodologiya_izucheniya_religioznosti_religioznoy_situatsii. Мурожаат санаси: 24.07.2025 й.
5. Мещерякова А. Ф. (2024) Обеспечение религиозной безопасности в условиях идеологического плюрализма и светского государства // Электронный научный журнал «Наука. Общество. Государство». Т. 12, № 3. С. 53–62.
6. Выдрина Г.А. Религиозная ситуация как объект государственного регулирования: На материалах Ханты-Мансийского автономного округа. <https://www.dissercat.com/content/religioznaya-situatsiya-kak-obekt-gosudarstvennogo-regulirovaniya-na-materialakh-khanty-mans>. Мурожаат санаси 28.07.2025 й.
7. Е.Элбакаян, В.Сторчак. Исследование состояния религиозности и религиозной ситуации. https://studme.org/151963/sotsiologiya/metodologiya_izucheniya_religioznosti_religioznoy_situatsii.

- org/151965/sotsiologiya/issledovanie_sostoyaniya_religioznosti_religioznoy_situatsii. Murojaat sanasi: 25.07.2025 й.
8. <https://www.beratungsstelle-hessen.de/>;
 9. <https://www.isdglobal.org/>;
 10. <https://www.wired.com/>;
 11. <https://icsr.info/>;
 12. <https://icct.nl/topic/rehabilitation-reintegration>
 13. <https://www.azhar.eg/observer-en/>;
 14. <https://www.dar-alifta.org/en/article/details/9312/salam-center-for-extremism-studies-welcomes-the-appointment-of-un-special-envoy>;
 15. <https://www.moi.gov.sa/>;
 16. <https://hedayah.com/>;
 17. <https://sawabcenter.org/>;
 18. <https://etidal.org>
 19. <https://www.rsis.edu.sg>;
 20. <https://www.nmu.edu.kz/dini-ekstremizmge-karsy-ortalyk/>;
 21. ansar-aktobe.kz.

REFERENCES:

1. Paul Tillich. The Religious Situation. P. 13-15. [https://media.sabda.org/alkitab-2/Religion Online.org%20Books/Tillich%2C%20Paul%20%20The%20Religious%20Situation.pdf](https://media.sabda.org/alkitab-2/Religion%20Online.org%20Books/Tillich%2C%20Paul%20%20The%20Religious%20Situation.pdf). Murojaat sanasi: 27.07.2025-y.
2. Ebertz M. Religionssoziologie, Uhr, in: Staatslexikon8 online, Version 08.06.2022, <https://www.staatslexikon-online.de/Lexikon/Religionssoziologie>. Murojaat sanasi: 25.07.2025-y.
3. Leminskiy A. N. (2004) Veroispovednaya politika i religioznaya situatsiya v sovremennoy Rossii // Sotsialnaya politika i sotsiologiya. №2. – S.90/
4. Lopatkin R. A. Sotsiologicheskaya interpretatsiya ponyatiya “Religioznaya situatsiya”.https://studme.org/151963/sotsiologiya/metodologiya_izucheniya_religioznosti_religioznoy_situatsii. Murojaat sanasi: 24.07.2025-y.
5. Мещерякова А. Ф. (2024) Obespecheniye religioznoy bezopasnosti v usloviyax ideologicheskogo plyuralizma i svetskogo gosudarstva // Elektronnyy nauchnyy jurnal “Nauka. Obshchestvo. Gosudarstvo”. T. 12, № 3. S. 53–62.
6. Выдрина Г.А. Religioznaya situatsiya kak obyekt gosudarstvennogo regulirovaniya: Na materialax Xanty-Mansiyskogo avtonomnogo okruga. <https://www.dissercat.com/content/religioznaya-situatsiya-kak-obyekt-gosudarstvennogo-regulirovaniya-na-materialakh-khanty-mans> . Murojaat sanasi 28.07.2025-y.
7. Ye.Elbakayan, V.Storchak. Issledovaniye sostoyaniya religioznosti i religioznoy situatsii. https://studme.org/151965/sotsiologiya/issledovanie_sostoyaniya_religioznosti_religioznoy_situatsii. Murojaat sanasi: 25.07.2025-y.
8. <https://www.beratungsstelle-hessen.de/>;
9. <https://www.isdglobal.org/>;
10. <https://www.wired.com/>;